

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi
2023-yil 10 maydagi 23-sonli buyrug‘iga
2- ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan
“YO‘L XARITASI”**

T.r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	Monopoliyaga qarshi komplayens ishlarini olib borish.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan Nizom talablari asosida ishlarni olib borish.	Doimiy	Bo‘lim boshlig‘i Sh.Ismailov, Bosh yuriskonsult S.Azizov, Bosh hisobchi H.Ro‘zimurodov
2.	Raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish.	Tizimli ravishda raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish. Jamiyatda Raqobat qonunchiligi talablari o‘rnatilgan yoki buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish.	Har Chorakda	Bosh yuriskonsult S.Azizov Bosh hisobchi H.Ro‘zimurodov
3.	Inspeksiya tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilik xujjatlari buzilish ehtimolligini baholash.	Oxirgi 3 yil davomida Monopoliyaga qarshi organ tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoida buzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o‘rganish. O‘tkazilgan o‘rganishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash.	Har yili noyabr oyida 2023-yil dekabr oyida	Bosh hisobchi H.Ro‘zimurodov

T.r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Inspeksiya xodimlari orasida "Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish" mavzusida seminar o'tkazish.	Inspeksiya xodimlari orasida masofaviy shaklda raqobat qonunchiligi va uni buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o'zgarishlar, yangiliklar to'g'risida seminar trening mashg'ulotlarini o'tkazish.	Yilda 2 marta	Bosh hisobchi H.Ro'zimurodov
5.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Har yili monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotni tayyorlash, taqdim etish. 2. Hisobotni rasmiy veb sahifasida joylashtirish. 3. Monopoliyaga qarshi organga yuborish. 	Har yili 1 fevralga qadar Tasdiqlangand an so'ng 1 ish kunida Tasdiqlangand an so'ng 10 ish kunida	Bosh hisobchi H.Ro'zimurodov
6.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashunivini amalga oshirish.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegramm, veb-saytlar orqali yangi loyiha va takliflar bo'yicha axborot almashish.	Doimiy	Bo'lim boshlig'i Sh.Ismailov, Bosh hisobchi H.Ro'zimurodov